

BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI LEKSIK-GRAMMATIK MASHQLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Q. Begmatov¹

Annotatsiya:

Leksik-grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu kompetensiyalar kasbiy faoliyatda zaruriy bo'lgan asosiy ko'nikmalarni shakllantirishda xizmat qiladi, jumladan, chet tilida o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalash, til qoidalarini tushunish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Leksik-grammatik mashqlar ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Mazkur maqolada leksik-grammatik mashqlarning bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada turli mashq turlari va ularning o'qitish jarayonidagi qo'llanilishi ko'rib chiqilib, leksik-grammatik mashqlar va CLIL hamda PPP texnologiyalari yordamida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Leksik-grammatik kompetensiya, chet tilini o'qitish, kasbiy kompetensiya, til o'rganishdagi qo'rqov, kommunikativ kompetensiya, CLIL, PPP, chet tili o'qituvchilarini tayyorlash, til bilimlari, til mashqlari.

doi: <https://doi.org/10.2024/8c77eh10>

Bugungi kunda chet tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida leksik-grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kompetensiyalar o'qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatida zaruriy asosiy ko'nikmalarni shakllantiradi, jumladan, chet tilida o'z fikrini aniq va to'g'ri ifodalash, til qoidalarini tushunish va ulardan samarali foydalanish. Leksik-grammatik mashqlar esa bu ko'nikmalarni shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda leksik-grammatik mashqlarning o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda leksik-grammatik mashqlarning o'rni. Leksik-grammatik kompetensiya chet tilini o'rgatishda muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Ushbu kompetensiya o'quvchilarga til birliklarini, jumladan, so'zlar va iboralarni to'g'ri qo'llash, grammatik qoidalar asosida nutqni qurish imkonini beradi. Chet tilini o'qitishda mazkur ko'nikmalarni rivojlantirish o'qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarni chet tiliga o'rgatishda muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi nafaqat yaxshi grammatika va leksikani bilishi kerak, balki ularni amaliyotda qanday qo'llashni ham tushunishi zarur. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar leksik-grammatik mashqlar orqali til birliklarini faol o'zlashtirib, ular yordamida turli kommunikativ vazifalarni bajara olishlari kerak[6,94].

Leksik-grammatik mashqlar turlari va ularning xususiyatlari. Leksik-grammatik mashqlarni turli yo'nalishlarda taqdim etish mumkin. Ushbu mashqlar, odatda, til birliklarini o'zlashtirish, yangi so'zlarni yodlash va ularni to'g'ri ishlatish, grammatik qoidalar asosida gap

¹ Quvonchbek Muxtarovich Begmatov, SamDCHTI dotsenti v.b.

tuzish, jumla tuzilishini mustahkamlash kabi maqsadlarni ko'zlaydi. Mashqlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

So'z birikmalari va jumlarlar tuzish: Bu mashqlar orqali talabalar leksik birliklar va grammatik qoidalarni birgalikda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar[4,2577].

O'qish va tarjima mashqlari: Ushbu mashqlar talabalarni matnlarni to'g'ri tushunish va tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, leksik va grammatik qoidalardan amalda foydalanishga yordam beradi.

Yozma mashqlar: Yozma ishlar talabalar bilimlarini sinab ko'rish va ularni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalarga topshiriqlar berish orqali ularning grammatik qoidalarni amaliy qo'llash qobiliyatlarini rivojlantiriladi.

Test mashqlari: Testlar talabalar bilimini baholash uchun foydali vositadir. Ular qisqa vaqt ichida talabaning leksik va grammatik bilim darajasini o'lchash imkonini beradi[5,48].

Leksik-grammatik mashqlar yordamida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish. Kommunikativ kompetensiya chet tilini o'rgatish jarayonida asosiy maqsad hisoblanadi. Leksik-grammatik mashqlar orqali talabalar grammatik qoidalar va leksik birliklardan foydalangan holda o'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bunda o'quvchilarga mashqlarni turli kontekstlarda bajartirish ularning bilimlarini amaliyotga tadbiiq qilishiga yordam beradi.

Misol uchun, talabalarga turli vaziyatlarda (suhbat, yozishmalar, rasmiy va norasmiy muloqot) grammatika va leksikani qanday ishlatish kerakligini ko'rsatish orqali ularning kasbiy kompetensiyalari yanada rivojlantiriladi. Shu tariqa, leksik-grammatik mashqlar muloqot qilish qobiliyatlarini oshirish bilan birga, kasbiy tayyorgarlikda ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda CLIL va PPP texnologiyalari. Leksik-grammatik mashqlarni qo'llashda CLIL (Content and Language Integrated Learning) va PPP (Presentation, Practice, Production) texnologiyalari bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali bo'lib hisoblanadi. CLIL texnologiyasi talabalarga chet tilini amaliy kontekstda, ya'ni fanlarni o'rgatish jarayonida integratsiyalangan holda o'zlashtirish imkonini beradi. Bu usul orqali talabalar leksik va grammatik bilimlarini boshqa fanlar bilan bog'liq holda rivojlantiradi.

PPP texnologiyasi esa o'qituvchining talabalarga mavzuni tushuntirib, uni amaliyotda qo'llash orqali mustahkamlashga imkon beradi. Bu yondashuv talabalarga leksik va grammatik bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirishga, keyinchalik esa ularni erkin qo'llashga yordam beradi.

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda leksik-grammatik mashqlarni qo'llash katta ahamiyatga ega. Ushbu mashqlar o'quvchilarga til birliklarini aniq va samarali qo'llash ko'nikmalarini beradi. Shuningdek, CLIL va PPP texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarga o'z bilimlarini amaliyotga tadbiiq etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, leksik-grammatik mashqlar orqali o'quvchilar nafaqat grammatik va leksik bilimlarni, balki kasbiy kompetensiyalarni ham samarali rivojlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Azizxojayeva N. N. *Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. Oliy o'quv yurti o'qituvchilari va malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun metodik qo'llanma.* -T.: -2007.

[2]. Begmatov, Q. M. (2024, April). *Nemis tili darslarida talabalarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirish. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 172-174).*

[3]. Omonov H. T. N.X. Xo'jayev "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" –T, "Iqtisodiyot moliya" –2009.

[4]. Дубаков, А. В. Формирование методической компетенции будущего учителя иностранного языка: содержательные и организационно-технологические аспекты /А.В.Дубаков// Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2015. – Т. 13. – С.2576–2580. – URL: <http://e-koncept.ru/2015/85516.htm>.

[5]. Жалолов Ж. Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. Тошкент, 1996.

[6]. Зияева С. А Социолингвистическая компетенция как один из компонентов коммуникативной компетенции // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. LXI междунар. науч.-практ. конф. –№ 6(61). – Новосибирск, 2016. – С.92-96.